



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-may

VII-12-59-5-0-K/25

Navoiy viloyati

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining qaroriga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 16², 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Resurs soliqlari va mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-6121-sonli Farmoni, viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 29-martdagi (20/26-18861-sonli) xati, Qiziltepa tumani hokimining 2025-yil 11-aprel kuni (01/54-sonli) xati viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 29-martdagi (20/26-18861-sonli) xati viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i S.Nazarovning Navoiy viloyati Qiziltepa tumani yuridik shaxslarni qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlari soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo'llaniladigan koeffitsientlar to'g'risidagi xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 17-yanvardagi VII-4-3-5-0-K/25-sonli qaroriga qo'shimcha va o'zgartirish to'g'risidagi axboroti hamda bildirilgan fikr va mulohazalarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Navoiy viloyati soliq boshqarmasining 2025-yil 29-martdagi 20/26-18861-sonli xati hamda viloyati soliq boshqarmasi boshlig'i S.Nazarovning axboroti hamda bildirgan takliflari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2025-yil 17-yanvardagi VII-4-3-5-0-K/25-sonli qarorning 1-ilovasida Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha 2025-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer solig'ining bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlari miqdori 5-bandi ilovaga muvofiq o'zgartirilsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R.Sulaymonov) va xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) zimmlariga yuklansin.

Kengash raisi



ALIYEV G'OFIR
QUVATOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2025-yil 5-maydagi
VII-12-59-5-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar
bo'yicha 2025-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer
solig'ining bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

T/P	Shaharlar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlari uchun yer solig'i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, ming so'mda)
1	Qiziltepa tuman	0,54	21 384,0